

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

KIM SVETLANA ILINICHNA

**SIRDARYO HAVZASI AKVAKULTURA TIZIMLARIDA SUV SIFAT
KO‘RSATKICHLARINING CHEKLOVCHI XUSUSIYATLARI**

03.00.15 – Ixtiologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Kim Svetlana Ilinichna

Sirdaryo havzasi akvakultura tizimlarida suv sifat ko‘rsatkichlarining
cheklovchi xususiyatlari..... 3

Ким Светлана Илинична

Лимитирующие особенности показателей качества воды в системах
аквакультуры в бассейне Сырдарьи..... 19

Kim Svetlana Ilyinichna

Limiting features of water quality indicators in aquaculture systems in
the Syrdarya basin 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

KIM SVETLANA ILINICHNA

**SIRDARYO HAVZASI AKVAKULTURA TIZIMLARIDA SUV SIFAT
KO'RSATKICHLARINING CHEKLOVCHI XUSUSIYATLARI**

03.00.15 – Ixtiologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/B709 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdau.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashov Mansur Arzikulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kuzmetov Abdulaxmet Raymberdievich
biologiya fanlari doktori, professor

Mullabayev Nodirbek Ravshanbekovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Zoologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02-raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil 29 - sentabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti Mamuriy binosi, 2 qavat, anjumanlar zali). Tel.: (+99871) 260-48-00, faks (+99871) 260-38-60, E-mail: taug-info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (549244-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, Tel.: (+99871) 260-50-43

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 14-sentabr kuni tarqatildi.

(2023yil 14-sentabrdagi 6 - raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.R.Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., professor

X.A.Donayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, q.x.f.f.d., (PhD) dotsent

A.Gaziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda baliq yetishtirish hajmini oshirish akvakultura – sun’iy sharoitlarda yetishtirish hisobiga amalga oshirilmoqda. Barcha qit’alar chuchuk suv akvakulturasida baliq mahsuldorligi gektariga 10 sentnerdan (yoki $0,01 \text{ kg/m}^3$) 400 kg/m^3 gacha oshiradigan texnologiyalar ishlab chiqarishni hamda yetishtirilayotgan obektlar ro‘yxatini¹ (akvakulturada yetishtirilayotgan baliq turlari 500 dan ortiq) doimiy ravishda kengaytirib borishni taqozo etmoqda. Yangi yondashuvlarni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan suvning baliqchilik nuqtai nazardan sifat ko‘rsatkichlari, turli geografik hududlarda, baliq yetishtirishning turli tizimlarida va tur hayot siklining har xil bosqichlaridagi talabini o‘rganishga doir tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon chuchuk suv akvakulturasida shu jumladan, MDH mamlakatlarida tashqi abiotik omillarga bog‘liq holda yetishtirilayotgan baliqlarning o‘sishi, biomassasining ortishini, akvakulturaning turli tizimlarida o‘stirish texnologiyalarini ishlab chiqishni, baliqlar o‘stirish tig‘izligining suv sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini asoslashni, suvning sifatini bir meyorda saqlab turish yo‘llarini aniqlash bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib boriladi. Bu borada baliqlarning suv sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda, turli yemlardan foydalanganda, turli o‘stirish tig‘izligida o‘sishini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda karpsimon baliqlar hovuz polikulturasini rivojlantirish, baliq mahsuldorligini oshirish, hovuzlarni organik va mineral o‘g‘itlash orqali tabiiy ozuqa bazasini rivojlantirish borasida muayyan darajada ijobiy ishlar amalga oshirilgan. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “suv zahiralari boshqarish tizimini tubdan isloh qilish” “chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 hissa oshirish” shuningdek, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni yetishtirish va eksport salohiyatini oshirish” “ilg‘or fan yutuqlari va innovatsiyalar asosida qishloq xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish” bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda sanoat baliqchiligi texnologiyalarini rivojlantirish, suvning sifat ko‘rsatkichlari muammosini hal qilishga yordam beradigan, qo‘shimcha qiymat zanjirini ta’minlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 1 - maydagi PQ-2939-son “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 - yil 6 - apreldagi PQ-3657 “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018 - yil 6 - noyabrdagi PQ-4005 “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida hamda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 - yil 13 - sentabrdagi “Baliqchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 719-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy

¹ -<https://www.fao.org/3/i9036ru/i9036ru.pdf>

ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda suv havzalari suvining fizik, kimyoviy ko'rsatkichlarini, ularning muayyan baliq turlari biologik ko'rsatkichlariga mos kelishini aniqlashga katta e'tibor qaratiladi (Alley, 2007; Spellman, 2013). Suv sifat ko'rsatkichlarining turlar yashovchanligiga, hayot siklining ayrim davrlari o'tishiga ta'sirini hovuz baliqchiligida va intensiv akvakulturada o'rganishadi (Timmons, Ebeling, 2002; Tchobanoglous et al, 2003; Francis - Floyd, 2003; Tucker, 2004; Davis, 2004; Zunaira, Rehman, 2019). Suvning vodorod potentsialini (pH) o'rganishga (Неверова-Дзюпак, Цветкова, 2020; Tomar, 1999; Alley, 2007; Edzwald, 2010; Boyd et al, 2011; Hammer, 2011; Spellman, 2017 и др.), azot saqlovchi moddalar dinamikasiga alohida ahamiyat berilgan (Das et al, 2004; Philips et al, 2002; Timmons, Ebeling, 2002).

MDH mamlakatlarida ko'rsatib o'tilganlarga ko'p jihatdan hovuz polikulturasida va yaylov akvakulturasida havzalarida e'tibor qaratiladi (Alekin, 1963; Martishev, 1973; Privezentsev, 2000).

O'zbekistonda suvning sifat ko'rsatkichlariga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni (B.G.Kamilov, 2014, 2017, 2021, M.A.Yuldashov 2019 va boshq.) ishlarida uchratish mumkin.

Biroq akvakultura tizimlarida suv sifat ko'rsatkichlarining cheklovchi xususiyatlari yetarli darajada o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Baliqchilik ilmiy tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №ITD-1009-10.4-17132 "O'zbekiston baliqchilik xo'jaliklarida havza hosildorligini oshirish maqsadida karp baliqlarini polikulturada yetishtirish texnologiyasini optimallashtirish" (2015-2017 yillar), №QX-A-QX-2018-106 "Qimmatbaho baliq turlari tovar va chavoqlarini intensiv akvakulturada yetishtirish kompleks biotexnologiyalarini ishlab chiqish va tabiiy ozuqa organizmlarini yetishtirish" (2018-2020 yillar) amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent viloyati sharoitida yetishtirilayotgan baliqlar o'sishi va biomassasining ortishini yetarli darajada qulay sharoiti bilan ta'minlash uchun turli jadallik darajasidagi (yarim intensiv, intensiv) baliqchilik havzalari suvining asosiy baliqchilik sifat ko'rsatkichlari dinamikasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadiga erishishi uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

turli tipdagi (tuproq hovuzlar, qafas moslamalari, oqar suv basseynlari) baliqchilik havzalari suvining haroratini kunlik va yillik dinamikasini Chirchiq daryosi misolida Sirdaryo havzasi tog' va tog' oldi hududlarida o'rganish;

turli tipdagi suv havzalarida turlicha o'stirish tig'izligida, hovuzlarda – 0,01 kg/m³, qafas moslamalarida va oqar suv basseynlarida – 40 kg/m³ yetishtirganda suvda erigan kislorod miqdorining kunlik va yillik dinamikasiga baho berish;

o'rganilayotgan yarim intensiv va intensiv tizimlarida suvning tabiiy harorat sharoitida azot saqlovchi moddalari miqdor ko'rsatkichlarini yetishtirilayotgan turli baliq turlari biomassasiga bog'liqligini aniqlash;

Sirdaryo havzasi hovuzlarida, qafas moslamalarida, oqar suv basseynlarida suvining baliqchilik sifat ko'rsatkichlaridagi farqining obektiv sabablarini aniqlash; mahkamaviy maqsadlar uchun Sirdaryo havzasida turli jadallik tizimida yetishtirish obektlarini tanlash va suvining baliqchilik sifat ko'rsatkichlarini tezkor baholash hamda monitoring qilish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti sifatida suv harorati, baliqchilik havzalaridagi suvda erigan kislorod miqdori, vodorod potentsiali, azot birikmalarining umumiy miqdori, baliq mahsuldorligi kabi ko'rsatkichlari olingan.

Tadqiqotning predmeti turli tipdagi yer usti havzalar suvining sifat ko'rsatkichlari kunlik va yillik dinamikasi, jadalligi turlicha bo'lgan baliqlarni saqlash tizimi, turli o'stirish tig'izligi va baliqchilik chora-tadbirlarini o'tkazish tartibi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari suvning baliqchilik sifat ko'rsatkichlari gidrokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlashning umumqabul qilingan klassik (shisha) usuli, hovuzlarda, qafas moslamalarida, oqar suv basseynlarida va yopiq suv ta'minoti qurilmalaridagi turli tartibdagi tajribalarda ko'rsatkichlarni testlar yordamida kuzatish usuli, birlamchi ma'lumotlarni statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor respublikada tuproq hovuzlarda, qafas moslamalarida, oqar suv basseynlarida yetishtirilayotgan baliq turlarining sezilarli o'sishini ta'minlash uchun suv haroratining kunlik va yillik dinamikasi ta'sir qilishi, baliqchilik havzalarida 0,1 dan 40 kg/m³ o'stirish tig'izligida yetishtirilayotgan baliq turlariga suvda erigan kislorod miqdorining kunlik va yillik ko'rsatkich dinamikasi aniqlangan;

hovuzlarda yetishtirilayotgan karpsimon (*Cyprinidae*), oqar suv basseynlarida lossossimon (*Salmonidae*) va osyotrsimon (*Acipenseridae*), Yopiq suv ta'minoti qurilmasida (UZV) da sixlidlar (*Cihlidae*) oilasi vakillari metabolizm jarayonida hosil bo'ladigan azot saqlovchi moddalari (ammoniy va nitritlat) ko'rsatkichi tabiiy harorat sharoitida ularning biomassasiga bog'liq holda o'zgarishi asoslangan;

turli tipdagi suv havzalar suvining baliqchilik sifat ko'rsatkichlari hudud sharoitidan kelib chiqqan holda farq qilishi ilmiy asoslangan, Sirdaryo havzasi sharoitida yer usti suvi harorati akvakultura muayyan texnologiyasini qo'llash va unda yetishtiriladigan obektlarni tanlashda cheklovchi omil sifatida ta'sir qilishi aniqlangan;

O'zbekiston sharoitida sanoat baliqchiligi yo'nalishida suv sifatini saqlash xususiyatiga ega bo'lgan qafas moslamalari istiqbolga ega ekanligi isbotlangan;

turli jadallikdagi baliqchilik havzalari suvining sifat ko'rsatkichlarini tezkor baholash va monitoring qilish bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hovuzlar suvining baliqchilik sifat ko'rsatkichlarining yuqori darajadagi turg'unligi va harorat tartibi iqlimning mavsumiyligiga bog'liqligi aniqlangan;

ko'rsatkichlarni muntazam monitoring qilish natijalari qafas moslamalarining (o'stirish tig'izligi 100 kg/m³) yuqori turg'unligi ko'rsatgan, muhandislik yechimi ular o'rnatilgan suv havzalari suv sifat ko'rsatkichlarini me'yor darajasida saqlab turish imkoniyatini berishi aniqlangan;

suv manbasidan olish mumkin bo'lgan suv hajmi yillik dinamikasi asosida ishlab chiqilgan oqar suv basseynlari kunlik tartibi hisobiga baliq mahsuldorligi 20-30 kg/m³ bo'lganda maksimum bir soat ichida suvning to'liq almashinuvi ta'minlanganda aeratsiya talab etilmasligi, o'stirish tig'izligi bundan oshganda suvni doimiy ravishda aeratsiya qilish zarurati paydo bo'lishi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi o'rganilayotgan hududdagi turli tipdagi shu jumladan, baliqlarning har xil turlarni turlicha tizimlarda saqlanadigan suv havzalaridan muntazam ravishda to'plangan ma'lumotlar yig'ilganligi, suv ko'rsatkichlarini baholashda umumqabul qilingan usullardan foydalanilganligi, variatsion statistika usullari qo'llanilganligi, ishda bir qator baliqchilik xo'jaliklari ma'lumotlaridan ko'p marta foydalanilganligi shu jumladan, innovatsion texnologiyalar aprobatsiya qilinganligi, olingan natijalarning yetakchi nashrlarda chop etilganligi hamda amaliy natijalarning vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hovuzlarda, qafaslarda, basseynlarda o'stirish tig'izligi 0,01 - 40 kg/m³ bo'lganda baliqlarni yetishtirish tizimlaridagi suvning sifat ko'rsatkichlari o'stirish tig'izligiga bog'liq holda tahlil qilinganligi, hududlarni zonalarga bo'lish asoslanganligi, mahalliy sharoit baliqchilik texnologiyalarida suvning harorat ko'rsatkichi hal qiluvchi omil ekanligining ko'rsatib berilganligi hamda suvning sifat ko'rsatkichlarining turli tizimlarda o'zgaruvchan ekanligining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati keskin-kontinental iqlim sharoitida hovuzlardagi yarim intensiv tizim texnologiyalarida, oqar suv basseynlari suv manbalarida va lentik havzalardagi qafas moslamalarida intensiv texnologiyalarda suvning sifat ko'rsatkichlariga talabning ortishi asoslab berilganligi, ma'lumotlarning akvakulturani rivojlantirish tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sirdaryo havzasi akvakultura tizimlarida suv sifat ko'rsatkichlarining cheklovchi xususiyatlari mavzusi bo'yicha olingan natijalar asosida:

hovuzlarni ko'chma aerator qurilmasi yordamida erigan kislorodga boyitish bo'yicha bergan tavsiyasi "Khorrot fish house" UK da amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2022 - yil 12 - apreldagi 02/23-714 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, suvda erigan kislorod miqdori 4,16 mg/l dan 7,1 mg/l oshib baliqlar o'lish holati to'xtagan va hovuzlarning baliq mahsuldorligini 15 sentnerdan 22 sentnerga oshirish imkoniyati yaratilgan;

2021- yil 21 - yanvarda № 37775 raqamli mualliflik guvohnomasi olingan tashqi biologik filtr Baliqchilik ilmiy - tadqiqot institutida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2022 -yil 12 - apreldagi 02/23-714 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada karp balig'i chavoqlarining yashovchanligini 15 % ga oshirish imkoniyati yaratilgan;

ko'chma aeratsiya qurilmasi bilan hovuzlarni erigan kislorodga boyitish to'g'risidagi tavsiyasi "Yangi oltin baliq" MCHJ da amaliyotga joriy qilingan ("O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi tomonidan 2022 -yil 24 - martda berilgan 09/259

– sonli ma'lumotnoma). Natijada, suvda erigan kislorod miqdori 4,2 mg/l dan 6,7 mg/l (63%) ga oshgan hamda karpsimon baliqlar inkubatsiyasi davrida ikradan lichinkalar chiqishini 45% ga ya'ni, 30% dan 75% ga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 39 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan 13 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, boshqa jurnallarda 7 ta maqola chop etilgan, 3 ta tavsiyanoma, 1 ta yo'riqnoma, ikkita ixtiro uchun mualliflik guvohnomasi olingan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish, 5 bob, Xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, qolaversa, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

“Akvakultura ehtiyojlari uchun suvning baliqchilik sifat ko'rsatkichlarini baholash”, - deb nomlangan birinchi bobda turli tizimlarda yetishtirilayotgan baliqlar o'sishi va ixtiomassasining ortishiga tashqi muhit omillari salbiy ta'sirining oldini olishda gidrokimyoviy tadqiqotlar muhimligi ko'rsatilgan. Baliqchilik amaliyotida suv sifati bo'yicha mutaxassislar bir qator kompleks ko'rsatkichlarni aniqlaydi va yetishtirish tizimi gidrokimyoviy tahlili sifatida umumlashtiriladi. Suvning sifatini tahlil qilish muhim jarayon bo'lib muayyan hududlarda akvakulturani rivojlantirib muayyan baliqchilik tizimlarida (hovuz, qafas moslamalari, basseynlar) u yoki bu obektdan foydalanish imkoniyatini belgilab beradi. Suvning sifatini cheklovchi omillar – suvning harorati, vodorod potentsiali (pH), suvda erigan kislorod miqdori, azot saqlovchi moddalar miqdori ekanligi asoslangan.

Yetishtirilayotgan har bir tur u yoki bu hayot siklining o'tishida mazkur ko'rsatkichlarning optimal va kritik chegarasi bor. Eng yuqori talab ular hayotining dastlabki davrlarida bo'ladi va har bir turning talabi o'rtasida katta farq bo'ladi. Turli geografik sharoitlardagi (hatto bir daryo miqyosida) turli baliqchilik tizimlarida bu omillar shakllanishida farq bo'ladi.

Suvning harorati, suvda erigan kislorod miqdori, pH, suvning sho'rliigi / minerallashuvi, suvda erigan azot birikmalarining umumiy miqdori kabi ko'rsatkichlar suvning baliqchilik nuqtai nazardan asosiy sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi va ularga baho berish, qolganlari haqida ishonchli tarzda xulosa qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchi bob **“Suvning sifat ko‘rsatkichlarini cheklovchi xususiyatlarini o‘rganish uslublari va manbalari”**, - deb nomlanadi va unda materiallar Chirchiq daryosi havzasida joylashgan turli tipdagi baliqchilik tizimlaridan (hovuz, qafas moslamalari, oqar suv basseynlari, yopiq suv ta‘minoti qurilmasi basseynlari) 2012-2021 yillar davomida to‘planganligi bayon qilingan. Namunalar (havo va suv harorati, pH, suvda standart talablar va uslublarga mos ravishda to‘plandi. Ko‘rsatkichlarning kunlik natijalari umumlashtirilgan holda yillik dinamikasi o‘rganildi. Mazkur tadqiqotlar baliq mahsuldorligi gektariga 25 sentner bo‘lgan hovuz baliqchiligida an‘anaviy tarzda yetishtirib kelinayotgan oq do‘ngpeshona (*Hypophthalmichthys molitrix*), karp (*Cyprinus carpio*), oq amur (*Ctenopharyngodon idella*), ba‘zan chipor do‘ngpeshona (*H.nobilis*), qafas moslamalarida kamalak gulbaliq (*Oncorhynchus mykiss*), oqar suv basseynlarida – kamalak gulbaliq, sibir osyotri (*Acipenser baerii*), Yopiq suv ta‘minoti qurilmasida (UZV) da borildi.

“Sirdaryo havzasi daryolarining qisqacha fizik-geografik tasnifi”, - deb nomlangan uchinchi bobda Sirdaryo havzasining tog‘li hududlardan Toshkent viloyatida Sirdaryoga qo‘shiladigan yirik irmog‘i - Chirchiq daryosi misolida xususiyatlari keltirilgan. Daryoga respublikamizda akvakultura tizimlarida eng ko‘p baliq yetishtiriladigan Toshkent viloyatida antropogen omilning maksimal ta‘siri seziladi. Viloyatda baliqlarni yetishtirishning ekstensiv, yarim intensiv karpsimon baliqlar hovuz polikulturasini, shuningdek, oqar suv basseynlarida, qafas moslamalarida, Yopiq suv ta‘minoti qurilmasida (UZV) da intensiv tizimlaridan foydalaniladi.

Chirchiq daryosining umumiy uzunligi - 174 km; suv yig‘adigan maydoni - 14 240 km². Chirchiq daryosi suvining - 55% Chotqol daryosi, -36% Pskom daryosi hamda 9% Ugom daryosi suvlaridan tashkil topgan. Yuqori qismida (30 km) Chirchiq daryosi tor daralar orasidan oqib o‘tsa pastki qismida uning o‘zani kengayib rel‘efning o‘ziga xos xususiyatlarini yo‘qotadi. Suvga to‘yinishi aralash, ular asosan qorlar hisobiga to‘yinadi. Daryoning boshlang‘ich qismida o‘rtacha suv sarfi - 221 m³/sek ga teng. Noyabrdan mart oyigacha muzlashi kuzatilgan. Ko‘p yillik kuzatishlar natijasida yil davomida eng kuchli oqimi iyun oyida eng kuchsiz oqimi fevral oyida bo‘lishi aniqlangan. Suvining sarfi dekabr-fevral oylarida eng past holatda bo‘ladi va mart oyidan ko‘paya boshlaydi. Umuman olganda daryo oqimining 61% mart-sentabr oylariga to‘g‘ri keladi. .

Baliqchilik jihatdan xususiyatlariga ko‘ra Chirchiq daryosi: sovuq suvli yuqori (uzunligi 29 km bo‘lgan daryo boshlanishidan Chirchiq Hidro Elektr Stantsiyasigacha) va iliq suvli pastki (uzunligi 145 km bo‘lgan Chirchiq Hidro Elektr Stantsiyasigidan quyilish joyigacha) hududlariga bo‘lingan.


“Baliqchilik tizimlari suvi baliqchilik sifati gidrokimyoviy ko‘rsatkichlarining dinamikasi”, - deb nomlangan to‘rtinchi bobda turli tipdagi akvakultura tizimlarida olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Baliqchilik hovuzlarida (Chirchiq daryosi o‘rta oqimida joylashgan Baliqchilik ITI baliq pitomnigi misolida) oq do‘ngpeshona, karp, oq amur va chipor do‘ngpeshona baliqlari gektariga 12-18 sentner baliq mahsuldorligida yetishtiriladi. Hovuzlarda turli yillarda suv sifat ko‘rsatkichlarining o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlari deyarlik bir xil (**1-rasm**). Havo harorati nisbatan

o'zgaruvchan, undan keyin hududning iqlim xususiyatlari bilan belgilanadigan suv harorati turadi.

Mo'tadil iqlim janubiy qismining xususiyatlariga bog'liq holda bahorda havo harorati ko'tariladi, yozda hudud juda issiq bo'ladi (masalan, 2021 yil yozida harorat 40°C dan ham oshdi), kuzda harorat pasayib qishda eng past darajasiga yetadi. Tahlil natijalari hovuzlardagi suv harorati havo haroratiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekanligini ko'rsatdi, suv harorati dinamikasi havo harorati dinamikasi ortidan boradi.


Havo haroratining o'rtacha kunlik ko'rsatkichi yil davomida turli yillarda – 7,2 - 36,9°C (2019), 2,2 – 35,5°C (2020), 0 – 46,5°C (2021) oralig'ida o'zgarib turdi. Suvning yuqori darajadagi issiqlik yutuvchanligi natijasida uning kunlik o'rtacha harorati havo harorati bilan taqqoslaganda sezilarli darajada silliqlashgan (tez o'zgarishga muhtalo bo'lmagan). Hovuzlardagi suvning kunlik o'rtacha harorati turli yillarda – 7,2-29,2 °C (2019), 4,08-26°C (2020), 5,6 - 33,5°C (2021) oralig'ida o'zgarib turdi. Ba'zan qisqa muddatlarda havo harorati sezilarli darajada pasaysa-da, suv harorati o'zgarmaydi. Bunday davrlarda havo harorati suv haroratidan bir muncha past bo'lishi (farq 5-7°C) mumkin. Biroq, suv harorati havo haroratidan – 5-10 °C past bo'ladi.



1 – rasm. Tuproq hovuzlari suvining baliqchilik gidrokimyoviy sifat ko'rsatkichlari yillik dinamikasi (2020 y.)

Hovuzlardagi suv hajmining kattaligi suvda erigan kislorod miqdoriga ta'sir qiladi. Suvda erigan kislorod miqdorining o'rtacha kunlik yillik dinamikasi unchalik katta bo'lmagan diapozonda: 2019 - yilda – 4,0-4,56 mg/l, 2020 yilda – 2,33-4,73 mg/l, 2021 yilda – 4,0-5,1 mg/l oralig'ida o'zgarib turdi. Ya'ni, yillik dinamikasida shu jumladan, mavsumiy keskin o'zgarish sezilmaydi. Hovuzlar suvining gaz tartibi yil davomida karpsimon baliqlar uchun yetarli bo'lgan darajada saqlanadi, biroq hatto qishda ham suvni kislorodga boy deb bo'lmaydi va buni suv beruvchi kanaldagi suv sifatining ta'siri bilan izohlash mumkin, suv zahiralardan foydalanishdagi keskinlik o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kritik davrda (2019 yil iyul oyi misolida) kislorod miqdori kun davomida sezilarli darajada – 1,5-7,8 mg/l (hovuzlardagi suvda erigan kislorod miqdori 2 mg/l kam bo'lsa kritik daraja sanaladi; tunning ikkinchi yarmida ko'rsatkich miqdori eng past bo'ladi, ertalab fotosintez jarayoni boshlanishi bilan gaz tartibi qulay bo'la boshlaydi, suvda erigan kislorod miqdori kunduzi oshib boradi va – 3,5 mg/l, dan 7,8 mg/l gacha yetadi (2-rasm).

Baliqlar o'zini yaxshi sezganligi sababli biz 2 mg/l ko'rsatkichni kritik darajaning o'rtacha kunlik ko'rsatkichi deb qabul qilish mumkin deb hisoblaymiz.




2-rasm. Hovuzdagi suvda erigan kislorod miqdori, havo harorati va suv haroratining kunlik dinamikasi 15 iyul 2019 yil

Baliq pitomnigi hovuzlar vodorod ko'rsatkichi 2019 yilda – 7,2-9,01, 2020 yilda – 8,15-9,15, 2021 yilda – 9,0 – 9,15 oralig'ida o'zgarib turdi, suv kuchsiz ishqorli, ko'rsatib o'tilganlar hududiy me'yorlarga mos keladi.

Azot birikmalarining suvda erigan miqdori 2019 - yil davomida yetarli darajada stabil ravishda bo'ldi (0,02 mg/l), ammo, yozda qisqa muddatlarda – 4 mg/l ga ko'tarildi (ruxsat etiladigan ko'rsatkichdan yuqori); 2020 - yilda – 0,03-0,8 mg/l, 2021 - yilda hatto qisqa muddatli ham yomon bo'lmay yil davomida ko'rsatkich – 0,16 mg/l atrofida bo'ldi. Ko'rsatkichning yoz davrida qisqa muddatlarda ko'tarilishi hovuzdagi ekologik jarayonlar bilan emas, suv beradigan kanal suvi ta'siri bilan bog'liq.

Hovuzlar suvidagi erigan azot birikmalari umumiy o'rtacha kunlik miqdori yillar davomida (2019 - 2021 yillar) stabil bo'lib, 0,03 - 2,0 mg/l ni tashkil qildi, suvdagi ammiak miqdori ham mavsum davomida o'zgarmadi va – 0 - 0,03 mg/l ni tashkil etdi. Ba'zi kunlari suv haroratining keskin ko'tarilishi, pH miqdorining o'zgarishi natijasida ko'rsatilgan moddalar miqdori keskin ortib ketishi mumkin. Masalan, 2019 yil yozi o'rtalarida suv harorati – 29,2 °C bo'lganda – 4 mg/l gacha oshdi, shu bilan birga ammiak miqdori ham – 0,28 mg/l gacha oshdi; ammoniy azot miqdori – 0,4 mg/l bo'lganda, ammiak miqdori – 0,02 mg/l ni tashkil qildi. 2020 –yilda, hatto ammoniy azot miqdorining qisqa muddatlarda oshgan davrida – 2,0 mg/l ga oshgan paytida ham ammiak miqdorining o'zgarishi kuzatilmadi (bu vaqtda suv harorati +10.8°C gacha pasaygani kuzatildi) (3-rasm).




3 – rasm. Hovuzlardagi ammiak miqdorining suv harorati, pH va ammoniy azot miqdori bilan bog'liqligi, 2019 yil.

Shuningdek, 2021 yil yozida havo harorati +46,5°C gacha va suv harorati +33,5°C gacha ko'tarilganda ammoniy azot miqdori – 2,0 mg/l gacha oshdi (bu yil davomidagi eng yuqori ko'rsatkich). pH miqdori o'zgarmadi va – 9 ga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan omillar birgalikda ammiak miqdorining – 1,06 mg/l gacha ortishiga olib keldi (maksimum), garchand boshqa paytlar uning miqdori –0,016 mg/l ga teng bo'lsa ham.

Hovuz suvidagi nitritlar miqdori – 0,04 - 0,08 mg/l oralig'ida o'zgarib turdi.

Baliqchilik qafas moslamalari ixtiomassaning o'ta yuqori bo'lishi bilan farq qiladi va baliqchilik hovuzlaridan ming martagacha yuqori bo'ladi (bizning tadqiqotlarimizda – 30-40 kg/m³). Tog' oldi hududidagi Xo'jakent suv omboriga o'rnatilgan qafas moslamalarida kamalak gul baliqni (*Oncorhynchus mykiss*) yetishtirishadi.

Xo'jakent suv ombori Chorvoq to'g'onining pastki qismidan chiqariladigan suv hisobiga to'ldiriladi ya'ni suvi sovuq (4-rasm). Aprel oyigacha suvi juda sovuq, 2019 yil aprel oyida – 7,1°C, iyul oyiga kelib – 13,2°C gacha ilidi, yozning ikkinchi yarmidan suv harorati pasayib bordi va oktabr oyiga kelib –11°C ga yetdi hamda qishga tomon yana pasayib bordi.



4 – rasm. Xo'jakent suv ombori qafas moslamalarida suvning o'rganilayotgan baliqchilik sifat ko'rsatkichlari yillik dinamikasi, 2019 yil

Baliqchilik xo'jaligi qafas moslamalarining chuqurligi 5-6 metrga yetishi mumkin. Har xil chuqurlikdagi suv harorati o'rtasidagi farq muhim masala bo'lishi mumkin. Bizning ma'lumotlarga ko'ra suv qatlami chuqurlashgan sari bor - yo'g'i o'ndan bir ulushga pasayib bordi.

Suv haroratini qafas moslamalari tepa qismidan, o'rtasidan va pastidan o'lchadik. Bir vaqtning o'zida qafas moslamalari boshlanish qismidagi tepa qismida suv harorati – 6,9°C bo'lsa, oxirgi qafasda – 8,2°C. Ya'ni qafaslar suv havzasidagi oqim tezligini pasaytirib suv haroratiga qandaydir ta'sir ko'rsatadi, ammo bu ta'sir – 0,2°C dan yuqori bo'lmadi.


Baliqchilik qafaslarida suvida erigan kislorod miqdori o'rganilgan suv havzasida butun vegetatsiya mavsumi davomida juda yuqori bo'lib – 6,9 - 11,1 mg/l atrofida o'zgarib turdi. Butun qafaslar uzunasi bo'ylab suvda erigan kislorod miqdori o'zgarmadi. Aprel oyida qafas moslamalarigacha suvda erigan kislorod miqdori –11,5mg/l, qafas moslamalari o'rtasida –10,2 mg/ va oxirgi qafasda yana ko'tarilib –11,2 mg/l ni tashkil qildi.

0-4 metrgacha chuqurlikda suvda erigan kislorod miqdori yillik dinamikasida hech qanday tafovut kuzatilmadi, qafas moslamalari suvining gaz tartibi ular o'rnatilgan suv havzasi gaz tartibi bilan bir xil. Shu bilan birga, o'rganilgan qafas moslamalarida kamalak gulbaliqning har xil yoshdagi vakillari – 30-40 kg/m³ o'stirish tig'izligida parvarishlandi kamalak gulbaliq oksifil baliq ya'ni kislorodga juda talabchan sanaladi.

Yozning o'rtalarida kechasi havo harorati kunlik dinamikasi – 18,5°C gacha pasaydi, kunduz kunlari esa – 25,3°C gacha isidi, suv harorati esa kecha va kunduzi – 13°C ni tashkil qildi. Garchand, kun davomida havo harorati sezilarli darajada +18,5°C (minimal) dan +27,3°C (maksimal) o'zgarib tursa-da, suv harorati doimiy bo'lib +13,1°C ga teng bo'ldi.

pH miqdorining mavsumiy o'zgarishi kuzatildi va uning miqdori –7,17 - 7,84 doirasida o'zgarib turdi. Qafas moslamalari uzunasi bo'ylab pH miqdori o'zgarib turadi (aprel va oktabr oylarida ko'rsatkich miqdori birinchi qafasdan oxirgi qafasgacha tomon oshib borib – 7,5 dan 7,61 ni tashkil qildi; iyun oyida qafas moslamalarigacha ko'rsatkich miqdori – 7,24, qafas moslamalari o'rtasida – 7,17 gacha pasaydi va oxirgi qafasgacha yana oshib – 7,25 ni tashkil qildi). Umuman olganda havza suvi muhiti neytral muhitga yaqin va kuchsiz ishqoriy sanaladi.

Qafas moslamalari suvi ammoniy azot miqdori mavsum davomida o'zgarib turdi va aprel oyida – 0,0 mg/l, suv harorati ko'tarilishi bilan iyul-avgust oylarida asta-sekin ko'tarilib – 0,8 mg/l ga yetdi (**5-rasm**), undan keyin kuz-bahor davrida uning miqdori – 0,08 mg/l dan oshmadi. Qafas moslamalari uzunasi bo'ylab har xil nuqtalarida sezilarli darajada farq mavjudligi aniqlandi. Ko'rsatkichning o'zgarishini kirayotgan suvda ammoniy azot miqdorining oshishi bilan izohlanadi. Vegetatsiya mavsumi boshlanishi bilan Chorvoq suv omboridan suv olinib boshlaydi va u qo'shimcha ravishda erigan organik moddalarni olib keladi. Respublikamizda qafas baliqchiligini rivojlantirishda biz chiqargan xulosa muhim deb o'ylaymiz, kamalak gulbaliq metabolizm jarayonlari natijasi qafas moslamalari hududida ammoniy azot miqdoriga ta'sir ko'rsatmaydi.



5-rasm. Turli xil yoshdagi kamalak gulbaliqlar qafas moslamasidagi ammoniy azot dinamikasi, Xo'jakent suv ombori, 2019 yil

Mavsum boshlanishi bilan barcha qafaslarda apreldan iyun oyigacha, shuningdek, oktabrdan aprel oyigacha suvda nitritlar miqdori minimal darajada

(0,0 mg/l). Yozda ko'rsatkich biroz ko'tariladi va may oyida maksimal darajada bo'lib – 0,0176 mg/l ni tashkil qildi.

Suvda erigan ammiak miqdori apreldan boshlab oktabrgacha o'zgaradi: kuz-bahor davrida minimal – 0,0 mg/l ni yoz o'rtasida esa maksimal – 0,021 mg/l bo'ladi. Suvdagi ammiak tarkibi bir qancha omillarga: suv harorati, pH, va ammoniy azot miqdoriga bog'liq. Qafas moslamalaridagi ammiak miqdori kamalak gulbaliq uchun ruxsat etilgan me'yorga (REM) to'liq mos keladi. Suv omborida kamalak gulbaliq yetishtirilayotgan qafas moslamalarining mazkur ko'rsatkichga ta'siri kuzatilmadi.

Oqar suv basseynlaridagi baliqlar metabolizm jarayonlari mahsulotlari oshishi va noqulay gaz tartibli suv doimiy ravishda toza bo'lgan qulay gaz sharoitli suvni o'zgartiradi. Kamalak gulbaliq yetishtirilayotgan ikki tipdagi suv manbaiga ega bo'lgan basseynning sifat darajasiga mos keladigan yer osti suvi va yer yuzasidagi oqar suv manbai tahlil qilindi (2012-2014 yillarda) har ikki holatda ham lichinka holatida import qilingan baliqlar parvarishlandi, "Coppens" firmasi yemlari bilan oziqlantirildi, o'stirish tig'izligi –20-30 kg/m³ ni tashkil qildi.

Yer osti manbaida suv harorati – 14°C, pH – 8,0, suvda erigan kislorod miqdori – 7 - 9 mg/l, azot birikmalari umumiy miqdori – 0,04 mg/l ni tashkil qildi. Ikralarni inkubatsiya qilishda suv sifati bo'yicha muammolar bo'lmadi; baliq chavoqlari rivojlanishi bilan (5 m² ga bo'lgan basseynlar) gaz tartibida muammolar paydo bo'la boshladi. Kislorod iste'mol darajasi oshdi, uning miqdori – 4,32 mg/l, 3,52 mg/l va 3,2 mg/l gacha pasaydi (aylana basseynlar kirishida, markazida va chiqishida). Azot birikmalari umumiy miqdori ikki hafta ichida – 2,0 mg/l gacha ko'tarildi undan keyin bir me'yorda qoldi.

Tovar baliqlar bo'lgan basseynlarda (20*2*1,2 m) baliqlarni parvarish qilish davomida juda kam o'zgardi (6,0 – 6,4 mg/l). Ammoniy azot miqdori kamalak gulbaliqlar o'sishi va ratsionining oshishi bilan – 0,2 mg/l gacha ko'tarildi. Shuningdek, nitritlar miqdori ham ruxsat etilgan me'yor darajasida bo'ldi (kirishda 0,001mg/l, maksimum - 0,02 mg/l) va ammiak (0 - 0,006 mg/l).

Irrigatsiya kanalidan suv oladigan to'g'ri burchakli ochiq basseynlarda (20*2*1,2 m) (Toshkent viloyati Qibray tumani) kamalak gulbaliq uchun qulay bo'lib yer osti manбайдan suv oladigan basseynga o'xshash bo'ldi.

Tekislik qismidagi Baliqchilik ilmiy tadqiqot instituti pitomnigidagi iliq suv obektlari yetishtiriladigan basseynlarda suv sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada farq mavjud (tadqiqotlarimiz sibir osyotri yetishtirish misolida olib borildi). O'lchami 6.5*1.5*1.5 m bo'lgan basseynlarda ham chavoqlar ham ota-ona baliqlar 25 – 30 kg/m³ o'stirish tig'izligida saqlandi.

Suv harorati yil davomida o'zgarib turdi va yanvarda +8,3°C, yoz o'rtalarida +22°C gacha ko'tariladi (kunlik o'rtacha havo harorati +33°C), ya'ni, ko'rsatkich iliq suv baliqlari uchun qulay, ammo baliqlarning tez o'sishi uchun sharoit may oyidan sentabrgacha bo'ladi. Yanvar oyida suvda erigan kislorod miqdori maksimal darajada (6,7 mg/l atrofida) ammo, yozda pasayadi (3,9 mg/l gacha), biroq iliq suv baliqlari uchun me'yor darajasida bo'ladi. Basseynlardagi pH miqdori – 8,05-8,81. Azot birikmalarining umumiy miqdori yil davomida stabil bo'lib ruxsat etilgan me'yor darajasida bo'ldi. Ammiakning maksimal miqdori

(0,28 mg/l) yoz vaqtida suv harorati maksimal darajasiga chiqqan paytda kuzatildi, shu vaqtda, ammoniy azot miqdori ham maksimal darajada (2 mg/l) bo'ldi.

Ta'kidlash kerakki, Yopiq suv ta'minoti qurilmasi (UZV) da tadqiqotlar olib borildi biroq, bunday tizimlarda barcha jarayonlarni boshqarish muhim shuning uchun ularga to'xtalmaymiz.

